

**MAMLAKATDAGI MEHNAT UNUMIGA SALBIY TA'SIR
KO'RSATAYOTGAN OMILLAR****Anvarova L.SH.** (Turon universiteti v.b.dotsenti)**Yusupova M.A** (Qarshi Xalqoro Universiteti magistranti)

O'zbekistonda keyingi yillarda xo'jalik yurituvchi subyektlarning mehnat unumiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar jadal tus olib bormoqda. Bu o'rinda erishilgan va turli manbalarda batafsil yoritilgan muvaffaqiyatlarni yana bir bor tavsiflab o'tirishga hojat yo'q. Muallif maqolada korxonalar mehnat unumiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillar haqida gapiradi. Mamlakatdagi mehnat unumiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan omillardan biri joylarda *innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning sust ketayotgani* bilan bog'liq. "Yangi O'zbekistonning iqtisodiy strategiyasi 2030 yilga qadar global innovatsion indeks reytingida dunyoning 50 ta yetakchi davlati qatoriga kirish va bu ulkan maqsadga erishishda inson kapitalini rivojlantirishni nazarda tutadi"¹. Buning uchun, davlat rahbari fikriga ko'ra, "sanoatni innovatsion asosda tashkil etish, uni rivojlantirishda drayver va o'sish nuqtalarini belgilab olish, ishlab chiqarishga ilg'or texnologiyalarni jalb etish orqali sanoat tarmoqlari raqobatbardoshligi va ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, "yashil texnologiya"larni ishlab chiqarishga tatbiq etishni rag'batlantirish, xom-ashyoni chuqur qayta ishlash va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, tashqi bozorlarda yuqori talabga ega mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga alohida e'tibor qaratish lozim"². Biroq "hududlarning iqtisodiy ixtisoslashuvi, ilmiy-texnik salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan holda innovatsion rivojlanishning hududiy dasturlari ishlab chiqilmagan hamda ishlab chiqarishning texnik va texnologik bazasi uzluksiz yangilanishini ta'minlashga qaratilgan yechimlarni joriy qilishda innovatsion texnologiyalarga urg'u va ustuvorlik berish talab qilinmoqda"³. Bu hol esa viloyatlardagi mehnat unumini oshirishni sezilarli ravishda sekinlashtirmoqda.

Ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish bilan bog'liq ayrim muammolar ham mehnat unumiga ta'sir ko'rsatmoqda. Ma'lumki, har qanday mahsulotni ishlab chiqarish, xizmatlar turkumini tayyorlash va amalga oshirish uchun inson ixtiyoridagi vositalar va uskunalar, zaruriy xom-ashyolar va resurslar bilan uyg'un holda faoliyat ko'rsatmog'i darkor⁴. Bu uyg'unlik ishlab chiqarish jarayonini muttasil ravishda takomillashtirib borish imkonini beradi. Mazkur uch komponent o'rtasidagi har qanday

¹ Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.134.

² Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.134.

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovatsion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"// lex.uz/docs/6102462.

⁴ Qarang: Туровец О.Г., Харитонов Н.Н. Организационно-экономические аспекты организации производственного процесса на предприятии.// ЭКОНОМИНФО, 2020, №1.- 5-9-с.

nomutanosiblik mehnat unumini tushirib yuboradi. Mehnat qurollari bilan yetarli darajada ta'minlangan, lekin zaruriy xom ashyodan uzib qo'yilgan xodim ishida unum bo'lmaydi. Xom ashyo bisyor bo'lgan bir vaziyatda ularga ishlov berishda, ulardan muayyan mahsulotni tayyorlashda qo'l keladigan uskunalar tanqis bo'lsa ham shunday oqibat sodir bo'ladi. Zaruriy predmetlar va vositalar mavjud bo'lgan bir sharoitda xodim malakasining zaifligi natijalari haqida ham shunday deyish mumkin. O'zbekistonning ayrim korxonalarida yuqoridagi nomutanosiblik yaqqol ko'zga tashlanadi. Masalan, "bugungi kunda respublikamizda 2692 ta davlat ishtirokidagi tijorat tashkilotlari iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat ko'rsatadi"⁵. Ma'lumotlarga qaraganda, ushbu korxonalarning 45 foizigina davlat byudjetiga dividend to'laydi, xolos. Ushbu dividendlarning ham 90 foizi 5 ta yirik korxonaga hissasiga to'g'ri keladi. Bu faktlar mazkur korxonalarda ishlab chiqarish jarayoni nooqilona tashkil etilganidan, "ularning aksariyati faoliyatining samaradorligi past darajada ekanligidan dalolat beradi"⁶.

Mehnat unumi turli korxona va tashkilotlarda faoliyat olib borayotgan xodimlarning ma'lumoti va malakasiga bog'liq. Yuqori malakali mutaxassislar murakkab iqtisodiy vazifalarni qisqa muddatda ado etish imkonini beradi. Biroq bu borada ham jiddiy muammolar kun tartibida turibdi. Chunonchi, turli jabhalarda faoliyat olib borayotgan *xodimlar salmoqli qismining ma'lumoti va malakasi zamon talablariga javob bermaydi*. Bu boradagi vaziyatni o'nglash imkonini beradigan yaxlit tizim esa tugal shakllanganicha yo'q. Mazkur tizimni shakllantirish va zamonaviylashtirish yo'lida ilk qadamlar qo'yildi, xolos. Xususan, mutaxassislar tayyorlash bilan bog'liq ijtimoiy vazifalarni ado etishda yetakchilik qiluvchi muassasalar – universitetlar, akademiyalar, institutlarda endigina xaridorgir mutaxassislarni tayyorlashga e'tibor kuchaytirilmoqda⁷. Endigina professional ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari va kasblari klassifikatori mehnat bozori talablariga moslashtirilmoqda. Shuningdek, so'nggi yillarda iqtisodiyot tarmoqlari xodimlarining malakasini oshirish tizimini takomillashtirish masalalariga e'tibor kuchaytirildi, bu borada ham jiddiy normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi, qator samarali chora-tadbirlar amalga oshirildi. Biroq bu choralar hozircha vaziyatni tubdan o'zgartirganicha yo'q. Shuning uchun ham davlat rahbari: "Qanday og'ir bo'lmasin, tan olishimiz kerak, yurtimiz ravnaqi uchun eng zarur yo'nalishlar bo'yicha

⁵ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".// lex.uz/docs/5348948.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida".// lex.uz/docs/5348948.

⁷ Qarang: Jo'rayev Y.D. Oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari.// Iqtisod va moliya, 2017, №5.- 29-35-b.

izlanuvchan, iste'dodli yosh kadrlarni chetda, rivojlangan davlatlarda o'qitishga majburmiz"⁸, - deb ta'kidlagan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev SH.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi.- T.:O'zbekiston, 2021.- B.134.
2. Jo'rayev Y.D. Oliy ta'lim va mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni chuqurlashtirishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari.// Iqtisod va moliya, 2017, №5.- 29-35-b.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. "2022-2026 yillarda O'zbekiston Respublikasining innovasion rivojlanish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"// lex.uz/docs/6102462.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarori. "2021-2025 yillarda davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish va isloh qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"// lex.uz/docs/5348948.
5. Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. J.3.- T.:O'zbekiston, 2019.- B.74.

⁸ Mirziyoyev SH.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi. J.3.- T.:O'zbekiston, 2019.- B.74.